

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA KATTA GURUHLARDA INTELLEKT, BILISH KATEGORIYALARINING KONTEKSTUAL TAHLILI

OLLANAZAROVA BONU MAQSUDOVNA

*Urganch davlat pedagogika instituti "Ta'lim
va tarbiya nazariyasi va metodikasi" (maktabgacha
ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich magistranti*
allanazarovabonu@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda katta guruh bolalarida intellekt va bilish kategoriyalarining nazariy hamda metodologik asoslari kontekstual jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi intellekt va bilish kategoriyalarining o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda ularning katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida intellekt va bilish kategoriyalarining mazmun-mohiyati yoritilib, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojlanishidagi o'rni ochib berildi. Tadqiqot natijalari katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyatini asoslash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: intellekt, bilish kategoriyalari, kontekstual tahlil, bilish faoliyati, intellektual rivojlanish, katta guruh bolalari, maktabgacha ta'lim.

KIRISH

Bugungi kunda intellekt va bilish kategoriyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sababi, globallashuv, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi insonning bilish faoliyati hamda intellektual salohiyatini yangi ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishni taqozo etmoqda. **Ma'lumki**, intellekt va bilish kategoriyalari falsafa, psixologiya, pedagogika hamda kognitiv fanlarning asosiy ilmiy tushunchalari hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar insonning borliqni anglash, bilimlarni egallash, ularni qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo'llash jarayonlarini tavsiflaydi. Shu sababli ularning mazmun-mohiyatini kontekstual yondashuv asosida tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. **Tahlillar shuni ko'rsatadiki**, mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida intellekt va bilish kategoriyalari alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi hamda kontekstual mazmunini ochib berishga bag'ishlangan izlanishlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim

sharoitida ushbu kategoriyalarning pedagogik talqini va ularni rivojlantirish omillarini aniqlash zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi, maktabgacha ta'limning katta guruh bolalarida intellekt va bilish kategoriyalarining nazariy hamda metodologik asoslarini kontekstual jihatdan tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda intellektual-bilish malakalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilandi:

- intellekt va bilish kategoriyalarining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini tahlil qilish;
- mazkur muammo yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;
- katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;
- intellektual-bilish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

ASOSIY QISM

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan avval ham olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, J.Piaje, L.S.Vygotskiy, H.Gardner, R.Stenberg, E.G'.G'oziyev, F.R.Qodirova va R.Mavlonova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida intellekt hamda bilish kategoriyalarining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. J.Piaje o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bolaning intellektual taraqqiyoti bosqichma-bosqich amalga oshirishini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, bilish jarayoni assimilyatsiya va akkomodatsiya mexanizmlari orqali rivojlanadi hamda maktabgacha yosh davrida bolalarda ramziy tafakkur, tasavvur va elementar mantiqiy operatsiyalar shakllanadi.¹

L.S.Vygotskiy intellektning rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta'limning yetakchi o'rin tutishini asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, bolaning bilish faoliyati kattalar bilan hamkorlik jarayonida rivojlanadi va "yaqin rivojlanish zonasi" orqali yangi bilimlarni egallash imkoniyati kengayadi.² H.Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko'p qirrali intellekt nazariyasiga ko'ra, intellekt yagona qobiliyat emas, balki bir necha mustaqil komponentlardan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Olim lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, kinestetik va shaxslararo intellekt turlarini ajratib ko'rsatadi.³ R.Stenberg esa intellektni analitik, ijodiy va amaliy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, intellektning

¹ The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 2001. – P. 18–23.

² Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978. – P. 86–90.

³ Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 2011. – P.60–67.

asosiy vazifasi insonning yangi sharoitlarga moslashishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi hamda mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.⁴

Mahalliy olimlardan E.G'.G'oziyev bilish jarayonlarini psixologik nuqtai nazardan tadqiq etib, sezgi, idrok, xotira, tafakkur va tasavvurning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Olimning fikriga ko'ra, bilish jarayonlarining rivojlanish darajasi shaxsning intellektual salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.⁵

F.R.Qodirova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning bilish faolligini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritib bergan.⁶ R.Mavlonova o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda ta'limiy muhit, o'yin texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.⁷

Olim	Asosiy ilmiy g'oya	Intellekt va bilish kategoriyasiga qarash	Tadqiqot uchun ahamiyati
1. J. Piae (1896–1980)	Kognitiv rivojlanish nazariyasining muallifi.	Intellekt bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bilish jarayoni assilyatsiya va akkomodatsiya orqali amalga oshadi.	Bilish jarayonining yoshga xos bosqichlarini tushuntiradi va intellektual rivojlanish mexanizmini asoslaydi.
2. L.S. Vygotskiy (1896–1934)	Madaniy-tarixiy nazariya asoschisi.	Intellekt ijtimoiy muhit va ta'lim ta'sirida rivojlanadi. "Yaqin rivojlanish zonasi" orqali bilish faollashadi.	Ta'lim va muloqot intellektual rivojlanishning yetakchi omili ekanini asoslaydi.
3. H. Gardner (1943-y. t.)	Ko'p qirrali intellekt nazariyasi muallifi.	Intellekt yagona qobiliyat emas, ko'p qirrali tuzilishga ega. Har bir inson turli intellekt turlariga ega bo'ladi.	Individual yondashuv zarurligini ko'rsatadi va ta'limda shaxsga mos yondashuvni asoslaydi.
4. R. Sternberg (1949-y. t.)	Triarxik intellekt nazariyasi muallifi.	Intellekt analitik, ijodiy va amaliy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaratiladi.	Bilimni amaliyotda qo'llash muhimligini asoslaydi va intellektni kompleks baholash imkonini beradi.
5. E.G'. G'oziyev (1928–2015)	O'zbekiston psixologiya fanining yetakchi vakili, bilish jarayonlari psixologiyasini tadqiq etgan.	Intellekt tafakkur, xotira, idrok va tasavvur jarayonlarining o'zaro bog'liqligi asosida rivojlanadi.	Bilish jarayonlarini kompleks o'rganish orqali intellektual rivojlanish mexanizmlarini tushuntiradi.
6. F.R. Qodirova (1948-y. t.)	Maktabgacha ta'lim pedagogikasi nazariyasini rivojlantirgan olim.	Bolalarning bilish faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirish intellektual taraqqiyotning muhim omilidir.	Katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini shakllantirishning pedagogik asoslarini belgilaydi.
7. R. Mavlonova (1955-y. t.)	Maktabgacha ta'limda shaxs rivojlanishi va ta'limiy muhit masalalarini tadqiq etgan.	Bilish faoliyati ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.	Maktabgacha ta'lim jarayonida intellektual rivojlanishni tashkil etish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

1-rasm. Intellekt va bilish kategoriyalariga oid xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy qarashlari

⁴ Sternberg R.J. Successful Intelligence. New York: Simon & Schuster, 1996. – P. 33–39.

⁵ G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 214–220-betlar.

⁶ Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 95–103-betlar.

⁷ Mavlonova R., Rahmonqulova N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 117–124-betlar.

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, turli olimlar intellekt va bilish kategoriyalarini turlicha talqin qilgan bo'lsalar-da, ularning barchasi bilish jarayonining shaxs intellektual rivojlanishidagi muhim o'rnini e'tirof etadilar. J.Piaje bilishning bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslagan bo'lsa, L.S.Vygotskiy ta'lim va ijtimoiy muhitning yetakchi rolini ko'rsatib bergan. H.Gardner individual yondashuv zarurligini, R.Stenberg esa bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari esa maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faolligi va intellektual salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ochib beradi. Bu esa katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini belgilash imkonini beradi. Biroq, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intellekt va bilish kategoriyalarining kontekstual jihatlari hamda ularning aynan katta guruh bolalarida namoyon bo'lish xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur muammoni hal etishda katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kontekstual yondashuv, integrativ pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyatlar hamda rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim jarayoniga interfaol metodlar, STEAM elementlari va mantiqiy topshiriqlarni joriy etish bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, katta guruh bolalarida intellektual-bilish malakalarini shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uni maktabgacha ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mazkur muammoning samarali yechimi sifatida qaraladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, intellekt va bilish kategoriyalari shaxsning intellektual rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur kategoriyalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarda bilish faolligi, mustaqil fikrlash hamda intellektual salohiyatning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limning katta guruh bolalarida intellekt va bilish kategoriyalarini kontekstual jihatdan o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Katta guruh yoshidagi bolalarda tafakkur, xotira, idrok, tasavvur va nutqning jadal rivojlanishi ularning intellektual-bilish malakalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Shuningdek, intellekt va bilish kategoriyalarining nazariy asoslarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bolalarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'limda katta guruh bolalarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda intellektual-bilish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, intellekt va bilish kategoriyalarining kontekstual tahlili maktabgacha

ta'lim jarayonida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda intellektual-bilish malakalarini samarali shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011.
4. Sternberg R.J. Successful Intelligence. – New York: Simon & Schuster, 1996.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
6. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.- 688 b.
7. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent, 2017.-528 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"
9. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022